

HOZIRGI INGLIZ TILIDA TELESKOPIK NEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TASNIFI

Shamsiddinova Shahnoza Yahyo qizi

Qarshi davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola hozirgi ingliz tilida teleskopik neologizmlarni semantik jihatidan tasnif qilishga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: teleskopiya, teleskopik neologizm, semantik tasnif, nutqiy tejamkorlik tamoyili.

Аннотация: Данная статья посвящена семантической классификации телескопических неологизмов в современном английском языке.

Ключевые слова: телескопия, телескопический неологизм, семантическая классификация, принцип речевой экономии.

Abstract: This article is devoted to the semantic classification of telescoping neologisms in modern English.

Key words: telescoping, telescopic neologism, semantic classification, the principle of speech economy.

Teleskopizmlarning paydo bo'lishi semantik omillarga bog'liq. Bu masala N.V.Belyayevaning ishlarida chuqur va atroflicha o'rganilgan¹. U quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi:

¹Беляева Н.В. Структура и семантика современных английских блендов. // Вестник ТвГУ. Серия "Филология". – 2013. Вып. 2. – С.247.

1) asosan, soʻz birikmasi shaklida qoʻllanadigan tayanch soʻzlar orasida barqaror semantik bogʻlanishlarning mavjudligi. Binobarin, teleskopizmga korrelyatlari tenglashtirilgan, ayniqsa kontekstda qoʻllanganda, yaʼni teleskopik yasalmalarni tashkil etgan tayanch soʻzlar maʼnosini qayta tiklash imkoniyatining mavjudligi, semantik shaffofligi bilan ajralib turadigan birlik sifatida tavsif berish mumkin.

2) ilgari bir-biri bilan birikkan holda qoʻllanmagan soʻzlar orasida semantik bogʻlanishning yuzaga kelishi. Ushbu omil birmuncha kreativ xarakterdagi neologizmlarning yasalişini taqozo etadi va bunday teleskopizmlarning tayanch soʻzlari teleskopizmni shakliga qarab maʼnosini yaxshi anglab olish uchun oson tanib oladigan boʻlishi shart.

M.A.Kulinichning tadqiqotlarida ikki tayanch soʻzning qoʻshilishi natijasida yasalgan teleskopik yasalmalar semantikasining xususiyatlari oʻrganilgan. U teleskopik yasalma semantikasi tyaanch komponentlar maʼnosini toʻliq yoki qisman qamrab oladi, degan xulosaga keladi. Teleskopizm yasalişida tayanch soʻzlar ifoda planida oʻzgarish sodir boʻladi, chunki teleskopiyada oʻzgargan shaklda namoyon boʻladigan korrelyat qisqaradi. Qisqargan shakldagi korrelyat butun boshli tayanch soʻzlar orqali ifodalangan maʼnoni oʻzida aks ettiradi, yaʼni toʻliq soʻz maʼnosi uning qismiga koʻchishi kuzatiladi².

Ifoda plani oʻzgarishi bilan mazmun plani ham oʻzgaradi. Bunday leksemalarning mazmun plani tayanch soʻzlar maʼnosining oddiygina yigʻindisi hisoblanmaydi. V.N.Komissarovning yozishicha, «fikr mazmuni til birliklariga (ularning «maʼnolariga») biriktirilgan axborotning va mazkur birliklardan foylanishning konkret sharoitlarida uzatiladigan qoʻshimcha axborotning oʻzaro taʼsirini ifodalaydi»³. Tayanch

² Кулинич М.А. Телескопное словообразование как источник неологизмов // Системные связи в лексике и грамматике германских языков. – 1991. – №3. – С.14.

³ Комиссаров В.Н. Теория перевода: Лингвистические аспекты. – М.: Высш. шк., 1990. – С.143.

soʻzlar maʼnosi va yangi teleskopik yasalma maʼnosi oʻrtasidagi munosabat oʻrganilayotgan soʻzlarda turlicha namoyon boʻladi.

L.Bauer teleskopik yasalmalarning semantik tavsifini ishlab chiqdi. Uning tasnifiga koʻra teleskopik birliklar quyidagilarga boʻlinadi:

1) Kelib chiqishi paradigmaticaga (assotsiatsiyaga) borib taqaladigan teleskopik birliklarning sinonimik, antonimik yoki giponimik munosabatda boʻlgan tayanch soʻzlari, shuningdek gibrid nomlar (*chofa=chair + sofa*, *blizzaster= blizzard + disaster*). Paradigmatik munosabatlar uchun tayanch soʻzlarning semantik va tushunchaviy yaqinligi hamda fonetik oʻxshashligi xosdir (*needcessity = need + necessity*; *crocogator = crocodile + alligator*; *preet = pretty + sweet*). Tayanch soʻzlar orasida yuzaga keladigan assotsiativ bogʻlanishlarga bogʻliq holda paradigmatic teleskopizmlarni quyidagi kichik guruhlariga ajratish mumkin:

a) maʼnosiga koʻra yaqin boʻlgan boʻlgan teleskopizmlar (sinonimik munosabatlar): *needcessity = need + necessity*; *preet = pretty + sweet*; *swellegant = swell + elegant*;

b) maʼnosiga koʻra qarama-qarshi boʻlgan teleskopizmlar (antonimik munosabatlar): *contract = concrete + abstract*;

c) bir tushuncha yoki sinfga mansub teleskopizmlar (giponimik munosabatlar): *Octember = October + November*; *Eurasia = Europe + Asia*;

d) komponentlari maʼnosiga koʻra yaqin boʻlmagan, biroq nutq zanjirida oʻzaro birining oʻrniga boshqasi qoʻllanish imkoniyatiga ega boʻlgan teleskopizmlar (grammatik tengmaʼnolilik): *baskart = basket + cart*.

2) Kelib chiqishi sintagmaticaga borib taqaladigan teleskopik birliklar. Ularning tayanch soʻzlari soʻz birikmasini hosil qilishi mumkin (*fake-ation = fakevacation*, *briet = bridal diet*). Kelib chiqishi sintagmaticaga borib taqaladigan teleskopizmlar chiziqli tarmoqda uchraydigan, birinchi soʻz oxiri va ikkinchi soʻz boshidagi chegarada umumiy

elementga (grafema yoki bo'g'in) ega bo'lgan va bu ikki so'zning birikishiga imkon beradigan so'zlardan iborat бӯлади (*Chicagorilla = Chicago + gorilla; morphonetics = morphology + phonetics; radarange = radar + range; dramateur = drama + amateur*).

Sintagmatik teleskopizmlar orasida quyidagi kichik guruhlarini ajratish mumkin:

- a) so'zning boshqa so'zlar bilan o'xshashligi asosida tarqalishi natijasida yasalgan birikmalar: (*judgematical = judgment + dogmatical*);
- b) xalq etimologiyasi tamoyili asosida yasalgan so'zlarni eslatuvchi birikmalar;
- c) birgalikda uchraydigan so'zlarning agglyutinatív (elliptik) shakllari (*starkarageous = stark + outrageous*)⁴.

Ayrim tilshunos olimlarning ishlarida semantik aspekt teleskopizm yasalishida muhim ahamiyatga ega hodisa sifatida o'rganilgan. Teleskopik yasalmalar, ko'p hollarda tayanch so'zlar orasidagi assotsiatív aloqalar sababli yasalishi etiborga olinadi.

Qayd etish joizki, semantik o'xshashlik har doim ham asosiy omil hisoblanavermaydi, katta ehtimol bilan, baribir asosiy rolni fonetik o'xshashlik o'ynasa kerak. Demak, teleskopizmni yasash uchun ikki yoki undan ortiq konseptlar orasida yuzaga keladigan semantik va fonetik assotsiatsiyaning mavjudligi nazariy jihatdan zarur. Agar ma'noning hosil bo'lishiga konseptual aspekt nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, teleskopik birlik yasalishi obyektlarni qayta anglashni taqozo etadi. Aniqroq aytganda, teleskopizmning hosil bo'lishidan oldin uning tarkibiy qismlarini tavsiflaydigan denotatni qayta anglash bosqichi turadi. Demak, teleskopik so'zlarni obyektiv borliqdagi predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni o'rnatish bo'yicha ongli operatsiyalarning natijasi sifatida o'rganish mumkin.

⁴ Bauer L. English word-formation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P.118.

Teleskopizmlar yasalishi qator tamoyillar orqali boshqariladi. Bu tamoyillar yasama soʻzda elementlarning joylashish tartibi, blendning koʻlami va tayanch soʻzlar kesishish nuqtasini belgilab beradi. Teleskopizm yasalishida asosiy talab sifatida yasama soʻzning yaxlit shaklga keltirilishi va mazmunining shaffofligiga erishish koʻrsatiladi. Biroq, baʼzi hollarda mazkur tamoyillar yasama soʻzning tovush va yozuv shaklini har bir konkret til uchun adekvat tarzda shakllantirishni taʼminlash, shuningdek semantik aniqlikka erishish ehtiyoji bilan bogʻliq ravishda amal qilmasligi mumkin.

Y.P.Yermolenkning taʼkidlashicha, semantik tizimli model semantik korrelyatsiyaning turli modellari koʻrinishida tayanch soʻzlar maʼnosining birikish turlari bilan aniqlanadi. Bunda motivlovchi birliklar maʼnosi teleskopizmga saqlanib qolishi yoki oʻzgarib ketishi mumkin.

Teleskopizmning oʻzgartirilgan yangi maʼnosi – bu bir yoki ikkala "parcha"ning dastlabki maʼnosining kengayishi, torayishi, metaforizatsiyasi va baʼzan ixtisoslashuvi tufayli undagi semantik axborotlarning tanlab ifodalanishi natijasidir⁵.

Teleskopik yasalmalar nutqning turli uslublarida faol qoʻllanadi. Bunga teleskopik yasalmalarning badiiy adabiyotda qoʻllanishi yaqqol misol boʻla oladi, bunda teleskopizmlar badiiy obrazni ixcham va rang-barang tasvirlashga, muallifning salohiyati va ijodkorligini ifodalashga yordam beradi. Teleskopizmlar ekspressivligi bilan ham alohida ajralib turadi. Bunga 2000 yilda nashr etilgan Zedi Smitning "White Teeth" romanidan olingan «pacinodeniro» (Al Pacino + Robert De Niro) teleskopik yasalmasini misol sifatida keltirish mumkin. Teleskopik birlik gettoda oʻsayotgan britaniyalik oʻsmirning ideallarini ifodalaydi.

Bugungi kunda fan va texnika sohasi faol rivojlanmoqda. Sintez natijasida qoʻlga kiritilgan koʻp sonli yangi kashfiyotlar sonining ortishi ushbu obyektlarni nomlashni

⁵ Ермоленко Ю.П. Номинативные модели формирования новых слов методом стяжения в современном английском языке: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2007. – С.76.

talab qiladi. Bunday holda, teleskopik tuzilmalar va umuman teleskopiya ilmiy sohadagi yangi hodisalarni ifodalash uchun nom berish (nominativ) vazifani bajarmoqda. O.A.Xrushevaning tadqiqotlarida teleskopik usul yordamida yasalgan 5 ta terminologik guruh ajratiladi:

1) gibrid hayvonlar: *geep* = *goat* + *sheep*; *labradoodle* = *labrador* + *poodle*; *liger* = *lion* + *tiger*; *wallaroo* = *wallaby* + *kangaroo*; *wholphin* = *whale* + *dolphin*; *zebrass* = *zebra* + *ass*; *zedonk* = *zebra* + *donkey*, bunday soʻzlarda birinchi komponent erkak (nar) jinsiga mansub zot (organizm)ni, ikkinchi komponent esa urgʻochi (moda) jinsiga mansub zot (organizm)ni ifodalaydi;

2) gibrid oʻsimliklar: *broccoflower* = *broccoli* + *cauliflower*; *celtuce* = *celery* + *lettuce*; *peacherine* = *peach* + *nectarine*; *tangemon* = *tangerine* + *lemon*;

3) texnikaning innovatsion obyektlari: *transceiver* = *transmitter* + *receiver*; *escalift* = *escalator* + *lift*; *camcorder* = *camera* + *recorder*;

4) oʻzaro yaqin fanlar va texnologiyalar: *bionics* = *biology* + *electronics*;

5) murakkab tarkibli moddalar: *alegar* = *ale* + *vinegar*; *etorphine* = *ether* + *morphine*⁶.

Yuqorida aytib oʻtilganidek, teleskopiya ulkan lingvokreativ imkoniyatga ega, u koʻpincha stilistik vosita sifatida namoyon boʻladi. Koʻp hollarda teleskopik birliklar stilistik belgiga ega boʻladi, yaʼni ular publitsistik matnlarda ishlatilishi mumkin. Publitsistik uslub tilining qulayligi, uslubining soddaligi, mantiqiyliigi, baholash xususiyatiga egaligi, emotsionalligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Teleskopik yasalmalar maxsus ifoda vositasi boʻlib, publitsistik uslubning barcha talablariga javob beradi. Sarlavhalarni yaratishda soʻz yasashning ushbu usulining lingvokreativ imkoniyatini eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydi, chunki bu jarayonda fikr koʻlami va uning mazmundorligi muhim ahamiyatga ega. Teleskopiya asosida sarlavhalarni

⁶ Хрущева, О.А. Дискурсивные особенности блендов [Текст] / О.А. Хрущева // Приоритетные направления развития современной науки: материалы Международной заочной научно-практической конференции. 3 июля 2010 г. / Отв. ред. М.В. Волкова. - Чебоксары: НИИ педагогики и психологии, 2010. - С.46.

yaratishda publitsistik uslubda muhim ahamiyatga ega bo'lgan nutqiy tejamkorlik tamoyilidan foydalanish mumkin.

Teleskopiyaning lingvokreativ imkoniyatlari, ayniqsa reklama sohasida yuqori baholanadi. Teleskopik birlik tejamkorlik, soddalik va hajm talablariga to'la javob beradi. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, teleskopik birlikning tarkibiy qismlari iste'molchiga tanish bo'lishi kerak. Reklama sohasida teleskopik birliklarning qo'llanishiga misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- 1) shiorlar (*revolution = revolution + Volvo*);
- 2) brend va kompaniyalar nomlari (*Cinnabon = cinnamon + bon*);
- 3) mahsulot nomlari (*Tiguan = tiger + iguana*).

Nutqiy tejamkorlik tamoyili internet kommunikatsiyalarida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati juda katta, teleskopiya, ayniqsa nashr etish uchun vaqt yetishmasligi yoki so'zlar sonining cheklanganligi sharoitida axborotlarni tabiiy va katta hajmda yetkazish usuli sifatida qo'l keladi. Bu holda teleskopiya muloqot ishtirokchilarining lisoniy ijodkorligi va o'z fikri (g'oyasi, dunyoqarashi)ni ifoda etishga bo'lgan intilishini yuzaga chiqarishda, amalga oshirishda axborot va ma'lumotlarni siqish va mustahkamlash tendensiyasining namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, teleskopiya ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida foydalaniladigan mustaqil, mahsuldor so'z yasash usuli hisoblanadi. Bugungi kunda teleskopik birliklar soni juda ko'p, biroq ular, ko'pincha okkazional xarakterga ega bo'lib, yozma shaklda qayd qilinmaydi. Shunga qaramasdan aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlarning shiddat bilan rivojlanishi ularning yozma shaklda ham qayd etilishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Беляева Н.В. Структура и семантика современных английских блендов. // Вестник ТвГУ. Серия "Филология". – 2013. Вып. 2. – С.243-250.
2. Ермоленко Ю.П. Номинативные модели формирования новых слов методом стяжения в современном английском языке: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2007. – 296 с.
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода: Лингвистические аспекты. – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с.
4. Кулинич М.А. Телескопное словообразование как источник неологизмов // Системные связи в лексике и грамматике германских языков. – 1991. – №3. – С.14-20.
5. Хрущева, О.А. Дискурсивные особенности блендов [Текст] / О.А. Хрущева // Приоритетные направления развития современной науки: материалы Международной заочной научно-практической конференции. 3 июля 2010 г. / Отв. ред. М.В. Волкова. - Чебоксары: НИИ педагогики и психологии, 2010. – С.42-47.
6. Bauer L. English word-formation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 312 p.